

RAQAMLI MEDIAMAKONDA MATN: LINGVISTIKADAN TASHQARI INTEGRATIV TAHLIL ZARURATI

Toirova Guli Ibragimovna

filologiya fanlari doktori (DSc), professori

tuqulijon@mail.ru

Buxoro davlat universiteti

Annotatsiya. Mazkur maqolada raqamli media makonida shakllanayotgan mediamatnlarni tahlil qilishning zamonaviy nazariy va metodologik asoslari kompleks tarzda yoritiladi hamda ushbu sohada vujudga kelayotgan yangi ilmiy yo'nalishlarning konseptual xususiyatlari tahlil qilinadi. Tadqiqotda raqamli kommunikatsiyalar jadal rivojlanayotgan sharoitda mediamatn an'anaviy lingvistik matndan tubdan farq qiluvchi, ko'p qatlamli semiotik tuzilma sifatida namoyon bo'layotgani ilmiy jihatdan asoslanadi. Xususan, raqamli mediamatnning multimodallik, interaktivlik, gipermatnlilik, algoritmik boshqaruvchanlik va dinamik yangilanuvchanlik kabi xususiyatlari uning ma'no hosil qilish jarayonini yangi bosqichga olib chiqqanligi ko'rsatib beriladi.

Maqolada mediadiskurs tahlilida faqat verbal-lingvistik yondashuv bilan cheklanib qolish raqamli muhitdagi kommunikatsiya jarayonlarining to'liq mohiyatini ochib berish imkonini bermasligi ta'kidlanadi. Shu munosabat bilan vizual, audial, grafik, kinetik, interfeys va platformaviy komponentlarni qamrab oluvchi integrativ tahlil modelining zarurligi nazariy hamda amaliy dalillar asosida asoslab beriladi. Raqamli mediamatnlarda ma'noning shakllanishi bir vaqtning o'zida turli semiotik kodlarning o'zaro ta'siri natijasida yuzaga kelishi, shu bois ularni tahlil qilishda polikodlilik tamoyili markaziy ahamiyat kasb etishi ilmiy jihatdan izohlanadi. Tadqiqot doirasida raqamli mediamatn tushunchasining transformatsiyasi, media mahsulotlarda ma'no yaratish mexanizmlarining ko'p kanalli tabiati, auditoriyaning passiv qabul qiluvchidan faol diskurs ishtirokchisiga aylanishi, shuningdek, algoritmlar va raqamli platformalarning kommunikativ hamda semiotik funksiyalari atroflicha tahlil qilinadi. Ayniqsa, ijtimoiy tarmoqlar,

kontent tavsiya qilish tizimlari va raqamli platformalar foydalanuvchi faolligini shakllantiruvchi hamda mediadiskursning mazmuniy va pragmatik xususiyatlarini belgilovchi muhim omil sifatida baholanadi. Shu bilan birga, maqolada korpus lingvistikasi, katta ma'lumotlar (Big Data) tahlili, mashinali o'qitish va sun'iy intellekt texnologiyalarining mediadiskurs tadqiqotlarida qo'llanilishi natijasida yuzaga kelayotgan yangi empirik imkoniyatlar yoritiladi. Ushbu texnologiyalar media muhitdagi til birliklari, diskursiv strategiyalar va auditoriya reaksiyalarini keng qamrovli ma'lumotlar asosida tahlil qilish imkonini berishi ko'rsatib o'tiladi. Tadqiqot natijalari asosida raqamli mediamatnlarni o'rganishda multimodal tahlil, platformaviy yondashuv, diskurs tahlili va korpus-lingvistik metodlarni o'zaro integratsiya qiluvchi kompleks konseptual model taklif etiladi. Mazkur model raqamli kommunikatsiyalar sharoitida media kontentning semantik, pragmatik va kognitiv xususiyatlarini chuqur tadqiq etish uchun samarali nazariy-metodologik asos bo'lib xizmat qilishi mumkin.

Kalit so'zlar: *raqamli mediamatn, mediadiskurs, multimodallik, platformaviy diskurs, algoritmik kommunikatsiya, korpus tahlili, raqamli semiotika, interaktivlik, internet kommunikatsiyasi, integrativ model.*

KIRISH. XXI asr axborot sivilizatsiyasi sharoitida kommunikatsiya jarayonlari misli ko'rilmagan darajada transformatsiyaga uchramoqda. Raqamli texnologiyalarning jadal rivojlanishi, internet tarmoqlarining global kommunikativ makonga aylanishi hamda ijtimoiy media platformalarining kundalik axborot almashinuvidagi ustuvor mavqeyi natijasida mediamatn tushunchasi ham yangi mazmun va shakl xususiyatlarini kasb etmoqda. Agar an'anaviy bosma nashrlar va elektron ommaviy axborot vositalari davrida mediamatn asosan verbal birliklar, matn kompozitsiyasi hamda janriy mezonlar asosida talqin qilingan bo'lsa, bugungi raqamli muhitda u multimodal, gipermatnli, interaktiv, tarmoqlashgan va algoritmik boshqariluvchi murakkab kommunikativ tizim sifatida namoyon bo'lmoqda.

Zamonaviy internet mediamakonida axborot uzatish va qabul qilish jarayonlari faqat yozma matn bilan cheklanmaydi. Ma'no yaratishda tasvirlar, videomateriallar, audiofayllar, infografikalar, animatsiyalar, emojilar, memlar, giperhavolalar, hashtaglar hamda turli interfeys elementlari faol ishtirok etadi. Natijada kommunikativ mazmun bir vaqtning o'zida bir necha semiotik kodlarning o'zaro integratsiyasi asosida shakllanadi. Bu holat mediamatnning polikodli tabiatini kuchaytirib, uni ko'p qatlamli va dinamik diskursiv hodisaga aylantirmoqda. Shuningdek, raqamli platformalarning texnologik imkoniyatlari foydalanuvchilarga kontentni yaratish, tahrirlash, ulashish va sharhlash imkonini berib, auditoriyani passiv axborot iste'molchisi maqomidan faol kommunikativ subyekt darajasiga olib chiqmoqda.

Raqamli kommunikatsiya sharoitida mediamatnning mazmuni va pragmatik ta'siri ko'pincha platforma algoritmlari, tavsiya tizimlari va foydalanuvchi xatti-harakatlari bilan chambarchas bog'liq holda shakllanadi. Shu sababli zamonaviy mediadiskursni tahlil qilishda faqat lingvistik yondashuv bilan chegaralanish yetarli emas. Aksincha, semiotika, pragmlingvistika, diskurs tahlili, media lingvistika, kommunikatsiya nazariyasi va raqamli texnologiyalarni birlashtiruvchi integrativ metodologiyaga ehtiyoj ortib bormoqda. Bunday yondashuv mediamatnda ma'no hosil bo'lish mexanizmlarini, auditoriya bilan o'zaro ta'sir jarayonlarini hamda platformalarning kommunikativ funksiyalarini chuqurroq anglash imkonini beradi.

So'nggi yillarda korpus lingvistikasi, katta ma'lumotlar (Big Data) tahlili, sun'iy intellekt va mashinali o'qitish texnologiyalarining rivojlanishi raqamli mediamatnlarni o'rganishning yangi istiqbollari ochib bermoqda. Ushbu texnologiyalar millionlab mediamatnlar, ijtimoiy tarmoq postlari va foydalanuvchi reaksiyalarini avtomatik tahlil qilish, diskursiv tendensiyalarni aniqlash hamda kommunikativ strategiyalarni empirik asosda tadqiq etish imkoniyatini yaratmoqda. Natijada mediadiskurs tadqiqotlari sifat jihatidan yangi bosqichga ko'tarilib, raqamli

kommunikatsiyaning lingvistik, kognitiv, madaniy va texnologik jihatlarini kompleks o'rganishga xizmat qilmoqda.

Shu nuqtayi nazardan, raqamli mediamatnlarni tadqiq etishda multimodal tahlil, platformaviy yondashuv, korpus lingvistikasi hamda sun'iy intellekt imkoniyatlarini o'zida mujassamlashtirgan integrativ ilmiy modelni ishlab chiqish dolzarb masalalardan biri hisoblanadi. Bunday model raqamli mediamakonning murakkab tabiatini chuqurroq anglash, zamonaviy kommunikativ jarayonlarning qonuniyatlarini aniqlash hamda media tadqiqotlarining nazariy-metodologik bazasini yanada takomillashtirishga xizmat qiladi.

Mavjud mediadiskurs tadqiqotlari, ayniqsa an'anaviy diskurs tahlili va tanqidiy diskurs tahlili doirasida olib borilgan izlanishlar, matnning ideologik, pragmatik va kognitiv xususiyatlarini keng yoritib bergan bo'lsa-da[1,7,8,9,], ularning aksariyati raqamli muhitga xos bo'lgan algoritmik boshqaruv, interaktiv ishtirok va platformaviy spetsifikani to'liq qamrab olmaydi. Internet platformalarida axborotning saralanishi, tarqalishi va auditoriyaga yetkazilishi maxsus algoritmlar orqali amalga oshiriladi. Bu jarayon diskursning mazmuni va pragmatik ta'siriga bevosita ta'sir ko'rsatadi. Shu nuqtayi nazardan, algoritmnii mediadiskursning tashqi sharti emas, balki uning ichki diskursiv mexanizmi sifatida ko'rib chiqish dolzarb ahamiyat kasb etadi.

Bundan tashqari, raqamli mediamatnda auditoriya passiv qabul qiluvchi emas, balki faol ishtirokchi sifatida namoyon bo'ladi. Izohlar, layklar, repostlar va reaksiyalar matnning ma'no doirasini kengaytiradi, uning interpretatsiyasiga ta'sir ko'rsatadi va yangi diskursiv qatlam hosil qiladi. Demak, raqamli mediamatnni tahlil qilishda interaktivlikni mustaqil pragmatik omil sifatida hisobga olish talab etiladi.

Raqamli muhitning yana bir muhim xususiyati – multimodallikdir. Verbal va vizual elementlar o'rtasidagi kogeziya, semantik muvofiqlik va pragmatik uyg'unlik mediamatnda ma'no yaratishning asosiy mexanizmiga aylanmoqda. Ayniqsa,

memlar, emodji va vizual metaforalar zamonaviy mediadiskursda implitsit ma'noni shakllantirishning muhim vositasi sifatida namoyon bo'ladi. Shu bilan birga, korpus texnologiyalari va sun'iy intellekt vositalari mediamatnlarni ommaviy va empirik asosda tahlil qilish imkoniyatini kengaytirmoqda.

Yuqorida qayd etilgan holatlar raqamli mediamatnlarni o'rganishda yangi ilmiy paradigmaga ehtiyoj mavjudligini ko'rsatadi. An'anaviy lingvistik yondashuv doirasida mediamatnning faqat verbal qirrasini tahlil qilinsa, raqamli muhitda uning multimodal, algoritmik va platformaviy xususiyatlarini hisobga olmagan holda kompleks ilmiy xulosa chiqarish mushkul. Shuning uchun mazkur tadqiqotda raqamli mediamatnlarni tahlil qilishda multimodallik, interaktivlik va korpus-asoslangan yondashuvlarni sintez qiluvchi integrativ modelni nazariy jihatdan asoslash maqsad qilib qo'yiladi.

MAVZUGA OID ADABIYOTLAR TAHLILI. Mediadiskurs va mediamatn masalasi zamonaviy tilshunoslikda mustaqil ilmiy yo'nalish sifatida shakllangan bo'lib, uning nazariy asoslari bir qator rus va xorijiy hamda o'zbek tadqiqotchilar ishlarida ishlab chiqilgan[1,2,4,8,10]. Xususan, mediadiskursning ta'sirchanlik mexanizmini o'rganishda M.R.Jeltuxinaning ilmiy merosi alohida ahamiyat kasb etadi. U ommaviy axborot vositalari tilida troplarining suggestiv funksiyasini tahlil qilib, mediamatnda obrazlilik va baholovchilik kategoriyalari auditoriya ongiga yo'naltirilgan ta'sir mexanizmi sifatida namoyon bo'lishini asoslab bergan. Bu yondashuv mediadiskursni faqat axborot yetkazish vositasi emas, balki ta'sir o'tkazish mexanizmi sifatida tushunishga imkon beradi[5].

Diskurs nazariyasining kognitiv va lingvomadaniy qirralarini ochib berishda V. I. Karasikning ishlari muhim nazariy manba hisoblanadi. Olim diskursni til, shaxs va madaniyat o'zaro ta'sirida shakllanuvchi ijtimoiy-kommunikativ hodisa sifatida talqin etadi. Uning konsepsiyasiga ko'ra, mediadiskurs muayyan konseptlar va qadriyatlar tizimi asosida quriladi. Mazkur nazariya raqamli mediamatnlarda ham

konseptual yadro mavjudligini, biroq uning shakllanish mexanizmi zamonaviy muhitda o'zgarganini tahlil qilishga nazariy zamin yaratadi[6].

Siyosiy mediadiskurs semiotikasiga bag'ishlangan Ye.I.Sheygal tadqiqotlari belgilar tizimi va simvolik kodlarning ideologik ma'no yaratishdagi rolini ochib beradi. Uning ishlarida mediadiskursda belgilarning interpretatsiyasi va manipulyativ imkoniyatlari atroflicha yoritilgan. Bu yondashuv raqamli muhitda memlar, vizual simvollar va infografika kabi yangi belgilar tizimini tahlil qilishda muhim nazariy asos bo'lib xizmat qiladi[7].

Medialingvistika sohasida T. G. Dobrosklonskaya mediatekstni ommaviy axborot vositalari diskursining asosiy birligi sifatida belgilab, uni tizimli yondashuv asosida tadqiq etgan. U mediatekstni janrovii, pragmatik va funksional jihatdan kompleks kommunikativ birlik sifatida qarash zarurligini ta'kidlaydi[2,3]. Shu bilan birga, mediatekstning diskursiv tabiati uning ijtimoiy muhit bilan uzviy bog'liq ekanini ko'rsatadi. Biroq mazkur tadqiqotlar asosan an'anaviy OAV materiallari doirasida olib borilgan bo'lib, raqamli platformalarga xos interaktivlik va algoritmik omillar yetarlicha qamrab olinmagan.

Telediskursni ijtimoiy subyektini shakllantiruvchi konstruktsiya sifatida talqin etgan S. N. Doljikova mediamatnning auditoriya identichligiga ta'sirini ko'rsatib bergan. Bu g'oya raqamli mediamatnda auditoriya faol ishtirokchiga aylangan sharoitda yanada keng ma'no kasb etadi. Chunki internet muhitida auditoriya nafaqat qabul qiluvchi, balki diskursni birgalikda yaratuvchi subyekt sifatida namoyon bo'ladi[4].

Shu tariqa, mavzuga oid adabiyotlar tahlili shuni ko'rsatadiki, mediadiskurs nazariyasida ta'sirchanlik, konseptuallik, semiotik belgilar tizimi va mediatekstning tizimli tabiati kabi muhim qirralar ilmiy jihatdan asoslab berilgan. Biroq ushbu tadqiqotlar asosan an'anaviy media muhitiga qaratilgan bo'lib, raqamli kommunikatsiyalar sharoitida mediamatnning multimodal, interaktiv va algoritmik

xususiyatlarini kompleks tahlil qilish masalasi yetarli darajada ishlab chiqilmagan. Demak, raqamli mediamatnlarning yangi tabiatini hisobga olgan holda mavjud nazariy yondashuvlarni qayta konseptuallashtirish va integrativ tahlil modelini ishlab chiqish zamonaviy tilshunoslik oldida turgan dolzarb vazifalardan biri hisoblanadi.

MATERIALLAR VA METODLAR. Tadqiqot jarayonida sifatli va miqdoriy metodlarni uyg'unlashtirishga alohida e'tibor qaratildi. Sifatli tahlil raqamli matnning semantik, multimodal va pragmatik jihatlarini ochib berishga xizmat qilsa, miqdoriy tahlil statistik asosda trend va tendensiyalarni aniqlashga imkon berdi. Shu tarzda tadqiqot lingvistik, semiotik va texnologik omillarni o'zaro integratsiyalashgan holda amalga oshirildi.

Shuningdek, tadqiqotda axborot-kognitiv model qo'llanildi, ya'ni foydalanuvchi ongida diskurs orqali shakllanadigan ma'no va ijtimoiy-hissiy reaksiyalar sistematik ravishda kuzatildi. Bu metod raqamli mediadiskursning auditoriya bilan o'zaro aloqasini va interaktivligini aniqlash imkonini berdi.

Umuman olganda, ushbu metodologik yondashuv raqamli mediadiskursni ko'p qirrali, integratsiyalashgan, platforma va algoritmlarga bog'liq fenomen sifatida ilmiy jihatdan o'rganishga imkon yaratdi.

TAHLIL VA NATIJALAR. Ushbu tadqiqot doirasida raqamli mediadiskursni o'rganish maqsadida O'zbekistondagi ommaviy axborot vositalarining internet saytlaridagi yangilik matnlari tizimli tarzda tahlil qilindi. Tadqiqot materiali sifatida bir nechta asosiy platformalar tanlandi: Kun.uz sayti (yangiliklar, maqolalar va sharhlar), Gazeta.uz (siyosiy, iqtisodiy va ijtimoiy yangiliklar), Daryo.uz (multimodal yangiliklar hamda foydalanuvchi izohlari) va Xabar.uz (rasmiy axborot va press-revizlar). Tahlil jarayonida lingvistik, multimodal hamda pragmatik jihatlar alohida e'tiborga olindi. Tadqiqot materiali sifatida 2025-yil iyul—dekabr oylaridagi yangiliklar asosida jami 120 ta matn va 45 ta multimodal

kontent (video, infografika, rasmlar) o'rganildi. Shu orqali raqamli mediadiskursning til, ma'no va auditoriya bilan o'zaro aloqasi kompleks tarzda tahlil qilindi[11,12,13,14].

Tahlil natijalari shuni ko'rsatdiki, o'zbek tilidagi raqamli yangilik matnlari bir qator lingvistik, stilistik va pragmatik xususiyatlarga ega bo'lib, ular raqamli mediamatnlarni chuqur o'rganish uchun yangi ilmiy yo'nalishlarni shakllantirishga asos yaratadi.

Lingvistik va stilistik tahlil ko'rsatdiki, yangilik matnlari odatda axborotni qisqa va aniq yetkazishga yo'naltirilgan. Matnlar faktlar ketma-ketligi shaklida tuziladi, sub'ektiv baholash va tahririy fikrlar cheklangan. Masalan, Kun.uz saytida siyosiy yangiliklar rasmiy manbalar iqtiboslari bilan taqdim etiladi, persvaziv elementlar esa asosan sarlavha va kiritma izohlar orqali ifodalanadi. Shu bilan birga, Daryo.uz platformasidagi matnlarda baholovchi leksika (muvofig, muhim, katta e'tibor kabi so'zlar) keng qo'llaniladi, bu esa o'quvchining xabarni qabul qilish jarayonida ongli baholash mexanizmini shakllantiradi[12].

Yangilik matnlarida multimodal elementlarning keng qo'llanilishi ham muhim xususiyat sifatida ajralib turadi. Rasm, video va infografika matnni boyitib, uning ma'no kuchini oshiradi. Masalan, iqtisodiy yangiliklar bo'yicha interaktiv grafiklar auditoriyaga jarayonni vizual tarzda tushuntirish imkonini beradi. Bu multimodal yondashuv matnning aniq va tushunarli bo'lishini ta'minlaydi hamda o'quvchining diqqatini jalb qiladi.

Pragmatik tahlil natijalari shuni ko'rsatdiki, auditoriya bilan interaktiv aloqalar raqamli mediadiskursning ajralmas qismi hisoblanadi. Foydalanuvchi izohlari yangilik matnining semantik mazmunini kengaytiradi va interaktiv diskurs qatlamini hosil qiladi. Likelar, repostlar va izohlar esa mediadiskursning auditoriya tomonidan shakllantirilayotgan dinamizmini ko'rsatadi. Masalan, Daryo.uz platformasida siyosiy yangiliklar o'rtacha 30–50 izoh oladi, ijtimoiy mavzular

bo'yicha esa izohlar soni 80–120 ni tashkil etadi. Multimodal elementlar auditoriyani yanada jalb qiladi; video va infografikalar bilan boyitilgan yangiliklar o'rtacha 2–3 barobar ko'proq ulashish va izoh olish ko'rsatkichiga ega[12].

Diskursiv tahlil esa turli platformalarda bir xil mavzu bo'yicha yangiliklarni solishtirish orqali raqamli mediadiskursning xususiyatlarini ochib beradi. Natijalar shuni ko'rsatdiki, Kun.uz va Xabar.uz yangiliklarida rasmiy diskurs ustun bo'lib, matnlar odatda neytral va faktik xabarlar shaklida taqdim etiladi. Shu bilan birga, Daryo.uz va Gazeta.uz platformalarida interaktiv va multimodal diskurs ustun bo'lib, foydalanuvchi izohlari, infografika va video kontent matnga integratsiyalashgan[11,12,13,14].

Shunday qilib, raqamli mediamatnlar tahlili ko'rsatdiki, zamonaviy O'zbek internet-matbuotida mediadiskurs multimodal va interaktiv xarakterga ega bo'lib, u nafaqat matn, balki vizual va foydalanuvchi qatlamlari orqali ham ma'no yaratadi. Bu esa yangi ilmiy yo'nalishlar – lingvistik, multimodal va algoritmik integratsiyalashgan yondashuvlarni rivojlantirish imkonini beradi. Shu nuqtai nazardan, raqamli mediamatnlar tadqiqoti tilshunoslik, semiyotika va kognitiv fanlarni birlashtirgan kompleks metodologiyani talab qiladi.

XULOSA VA TAKLIFLAR. Ushbu tadqiqot natijalari shuni ko'rsatdiki, zamonaviy O'zbek internet-matbuotidagi raqamli mediamatnlar an'anaviy tekstlardan tubdan farq qiladi va ularni o'rganish uchun kompleks yondashuv talab etiladi. Mavjud tahlillar asosida aniqlanishicha, raqamli mediamatnlar faqat verbal tarkib bilan cheklanmay, balki multimodal elementlar (video, rasm, infografika), interaktiv komponentlar (foydalanuvchi izohlari, layk va repostlar), algoritmik boshqaruv va platformaviy xususiyatlar orqali ham ma'no yaratadi. Shu sababli, an'anaviy diskurs tahlili nazariyalari ularning barcha jihatlarini yetarli darajada qamrab ololmaydi.

Tahlil natijalari shuni ko'rsatdiki: Lingvistik va stilistik jihatlar – yangilik matnlari qisqa, aniq va faktlarga asoslangan bo'lib, baholovchi va persvaziv leksika sarlavha va kiritma izohlar orqali namoyon bo'ladi. Pragmatik va interaktiv jihatlar – foydalanuvchi izohlari, like va repostlar mediadiskursning dinamik va interaktiv qatlamini hosil qiladi, bu esa auditoriya bilan muloqotning samarali shakllanishini ta'minlaydi. Diskursiv va multimodal jihatlar – turli platformalarda yangiliklar taqqoslanganda, rasmiy diskurs va interaktiv diskurs o'rtasidagi farq aniq ko'zga tashlanadi. Multimodal va interaktiv komponentlar auditoriya e'tiborini jalb qilishda va ma'no shakllanishida hal qiluvchi rol o'ynaydi.

Umuman olganda, raqamli mediamatnlar tahlili nafaqat til va diskursni, balki multimodal, interaktiv va algoritmik jihatlarini ham o'zaro bog'lab o'rganishni talab qiladi. Shu yo'l bilan yangi ilmiy yo'nalishlar – raqamli mediadiskursning integratsiyalashgan, ko'p qatlamli va platformaviy modelini shakllantirish mumkin bo'ladi. Bu esa nafaqat tilshunoslik, balki kognitiv fanlar, media tadqiqotlari va kommunikatsiya nazariyasi uchun ham muhim ilmiy natijalarga olib keladi.

Foydalanilgan adabiyotlar ro'yxati

1. Бакиева Г. Х., Тешабаева, Д. М. Оммавий ахборот воситалари тили. – Т.: 2020. – 150 б.
2. Добросклонская Т. Г. Медиалингвистика: системный подход к изучению языка СМИ. – М.: 2008. – 220 с.
3. Добросклонская Т. Г. Медиатекст как единица дискурса средств массовой информации // Актуальные процессы в различных типах дискурсов: политический, медийный, рекламный дискурсы и интернет-коммуникация: материалы междунар. конф. (19–21 июня 2009 г.). – М.; Ярославль: Ремдер, 2009. – С.35–50.
4. Должикова С. Н. Теледискурс как конструкт социального субъекта // Вестник КАСУ. – 2001. № 2. –С. 12–20.
5. Желтухина М. Р. Тропологическая суггестивность массмедиаального дискурса: о проблеме речевого воздействия тропов в языке СМИ: монография. – М.: Ин-т языкознания РАН; Волгоград: Изд-во ВФ МУПК, 2003. – 656 с.
6. Карасик В. И. Языковой круг. Личность, концепты, дискурс. – Волгоград: Перемена, 2004. – 390 с.

7. Шейгал Е. И. Семиотика политического дискурса: монография. – Волгоград: Перемена, 2000. – 368 с.
8. Ходжаёров М. Б. Оммавий ахборот воситаларида медиаматн тушунчаси ва унинг қўлланилиши // *Oriental Renaissance: Innovative, educational, natural and social sciences*, 3(1), Jan., 2023, ISSN:2181-1784. SJIF 2023 = 6.131 / ASI Factor = 1.7. – Б.117–125.
9. Шамақсудова С. Х. Медиакommуникация жараёнида матн ва медиаматн // “Formation of psychology and pedagogy as interdisciplinary sciences”, <https://doi.org/10.5281/zenodo.6345145>, Ўзбекистон журналистика ва оммавий коммуникациялар университети, Ўзбек тили ва адабиёти кафедраси, доцент. –Б. 25–35.
10. Тошалиев И., Абдусатторов Р. Оммавий ахборотнинг тили ва услуги. – Т.: Zar-qalam, 2006. – 200 б.
11. Kun.uz, yangiliklar bo‘limi, 2025-yil iyul–dekabr, <https://kun.uz>
12. Daryo.uz, yangiliklar va interaktiv postlar, 2025-yil iyul–dekabr, <https://daryo.uz>
13. Gazeta.uz, yangiliklar va sharhlar, 2025-yil iyul–dekabr, <https://www.gazeta.uz>
14. Xabar.uz, rasmiy yangiliklar, 2025-yil iyul–dekabr, <https://www.xabar.uz>
15. Elov B.B., Toirova G.I., Zuparov T.M., Axmedova X.I. Formation of LMS Class Diagram // *International Conference on Artificial Intelligence and Smart Energy (ICAIS) 2024, Volume 2 (Springer)*. 2024. – P. 493–510. <https://doi.org/10.1007/978-3-031-61475-0>
16. Elov B.B., Abdisalomova Sh.A., Toirova G.I. The Uzbek Coreference Corpus: Description and Analysis // *International Conference on Computer Science and Engineering (UBMK)*. Istanbul, Türkiye, 2025. – P. 474–479. <https://doi.org/10.1109/UBMK67458.2025.11206990>
17. Alimov K., Rasulov A., Fayziyeva G., Toirova G.I., Narkabilova, G., Matchanova, M. A systematic comparative analysis of influence of artificial intelligence (AI with DS) in developing smart learning system // *2024 4th International Conference on Advance Computing and Innovative Technologies in Engineering (ICACITE 2024)*. 2024. – P. 1042–1046. <https://ieeexplore.ieee.org/document/10616794>
18. Elov B.B., [Bekmuradova I. Z.](#), [Israilova S. T.](#), Toirova G.I. Tagging units in the text and the Bayes algorithm // *Proceedings of the IEEE 3rd International Conference on Problems of Informatics Electronics and Radio Engineering (PIERE 2024)*. 2024. – P. 1840–1843. <https://ieeexplore.ieee.org/document/10804863>